

QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I, UNING ZARURIYATI VA IJTIMOYIY AHAMIYATI

Sapayev Jahongir Maxsudbekovich

Bank-moliya akademiyasi magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13925119>

Annotatsiya. Ushbu maqolada qo'shilgan qiymat solig'i, uning respublikamiz soliq tizimidagi o'rni, rivojlanish bosqichlari keltirilgan. Qo'shilgan qiymat solig'ini iqtisodiyotni raqobatbardoshligiga ta'siri, mohiyati, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan zarurligi ilmiy-nazariy adabiyotlarni sharhlash va xalqaro tajribani tahlil qilish orqali yoritilgan.

Kalit so'zlar: Qiymat, bilvosita soliqlar, qo'shilgan qiymat solig'i, iste'molchi, hisob varaqa-faktura, hisobot davri, qo'shilgan qiymat solig'i.

VALUE ADDED TAX, ITS NECESSITY AND SOCIAL IMPORTANCE

Abstract. This article presents the value added tax, its place in the tax system of our republic, and the stages of its development. The influence of the value-added tax on the competitiveness of the economy, its essence, socio-economic necessity is explained by interpreting the scientific and theoretical literature and analyzing the international experience.

Key words: Value, indirect taxes, value added tax, consumer, invoice, reporting period, value added tax.

НАЛОГ НА ДОБАВЛЕННУЮ СТОИМОСТЬ, ЕГО НЕОБХОДИМОСТЬ И СОЦИАЛЬНАЯ ЗНАЧИМОСТЬ.

Аннотация. В статье представлен налог на добавленную стоимость, его место в налоговой системе нашей республики, этапы его развития. На основе интерпретации научно-теоретической литературы и анализа международного опыта объясняется влияние налога на добавленную стоимость на конкурентоспособность экономики, его сущность, социально-экономическая необходимость.

Ключевые слова: Стоимость, косвенные налоги, налог на добавленную стоимость, потребитель, счет-фактура, отчетный период, налог на добавленную стоимость.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston va xalqaro soliq amaliyotida egri soliqlarning asosiy turlaridan biri – qo'shilgan qiymat solig'i hisoblanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'i – har bir ishlab chiqarish bosqichida va realizatsiya jarayonida undiriladigan ko'p qirrali bilvosita soliqdir. Korxona kundalik xo'jalik faoliyatida mahsulot yetkazib beruvchilardan tovar va xom-ashyo sotib oladi va ulardan mahsulot yoki ish, xizmatlar ishlab chiqaradi. Demak, qayta ishlab chiqarish, ishlab chiqarish va sotishda qo'shilgan qiymat yaratiladi.

Qo'shilgan qiymat o'zining iqtisodiy mohiyatiga ko'ra, sotilgan mahsulotlar, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlarning qiymati bilan ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan tovarlar, xom-ashyolar va xizmatlarning qiymati o'rtasidagi farqdan iboratdir. Tabiiyki, ishlab-chiqarish jarayonida va keyinchalik mehnat taqsimoti natijasida ma'lum bir tovar bozorga olib chiqilgunga qadar ishlab chiqarish va muomala jarayonidagi bir nechta bosqichlardan o'tadi, bu bosqichlarning har birida qo'shilgan qiymat yaratiladi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘ini davlat budjetining daromad qismiga jalb qilish g‘oyasi dastlab XX asrning boshlarida yuzaga keldi. Bu taklifni birinchi marta Germaniya budjet amaliyotida joriy etishni 1919 yilda Vilgelm fon Simens ilgari surdi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘ini amaliyotga joriy etish va undirish mexanizmi birinchi marta fransuz moliyachisi M.Lore tomonidan ishlab chiqildi. Ammo qo‘shilgan qiymat solig‘i M.Lorening taklifidan so‘ng o‘tgan 10 yildan ortiq vaqt mobaynida tajriba uchun taklif etilgan shaklda qo‘llanildi. Fransiyada qo‘shilgan qiymat solig‘i haqiqatda 1968 yildan boshlab joriy etildi.

XX asrning 70-yillarida qo‘shilgan qiymat solig‘i G‘arbiy YEvropaning qator mamlakatlarining soliq amaliyotida joriy qilindi. Buning asosiy sababi va huquqiyasosi bo‘lib, Yevropa iqtisodiy hamjamiyati tomonidan hamjamiyatga a‘zo mamlakatlarda qo‘shilgan qiymat solig‘ini undirishni tartibga solishning huquqiy me‘yorlarini umumlashtirish to‘g‘risidagi maxsus Direktivaning qabul qilinishi hisoblanadi. Mazkur Direktiva 1977 yilda qabul qilindi va unda egri soliqlarning asosiy turi sifatida qo‘shilgan qiymat solig‘i e‘tirof etildi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘iga xos bo‘lgan muhim xususiyatlardan biri shundaki, soliqqa tortishning ob‘ekti bo‘lib, nafaqat ichki bozordagi tovar oborot, balki mamlakat korxonalarining tashqi bozorlaridagi Tovar oboroti ham hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat budjetining daromad manbai sifatida qo‘shilgan qiymat solig‘i hozirga qadar o‘zining muhim o‘rnini va amaliy ahamiyatini saqlab kelayapdi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 dekabrda PQ-3454-sonli “O‘zbekiston Respublikasining 2018 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra 2018 yilda qo‘shilgan qiymat solig‘ining davlat budjeti daromadlari tarkibidagi salmog‘i 35,4 foizni, egri soliqlar tarkibida esa 65,9 foizni tashkil etishi rejalashtirilgan. Ushbu ko‘rsatkichlar qo‘shilgan qiymat solig‘ini budjet daromadlarining asosiy manbai ekanligini bildiradi.

Soliq to‘lovchilar tarkibi, soliq ob‘ekti va soliq stavkalari. Qo‘shilgan qiymat solig‘ining to‘lovchilari bo‘lib, amaldagi qonun xujjatlariga asosan ushbu soliqni budjet oldida hisob-kitobini amalga oshiruvchi tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik shaxslar tushuniladi. Jumladan:

- 1) soliq solinadigan oborotlarga ega bo‘lgan yuridik shaxslar;
- 2) O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan amalga oshirilayotgan soliq solinadigan oborotlar uchun qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lash bo‘yicha majburiyat yuklatiladigan yuridik shaxslar;
- 3) tovarlarni O‘zbekiston Respublikasi hududiga import qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar (o‘z ehtiyojlari uchun bojsiz olib kirish normalari doirasida tovarlar olib kiruvchi jismoniy shaxslar bundan mustasno);
- 4) oddiy shirkat soliq solinadigan oborotlarni amalga oshirayotganda zimmasiga uning ishlarini yuritish yuklatilgan (ishonchli shaxs) oddiy shirkat shartnomasining sherigi (ishtirokchisi).

Notijorat tashkilotlar (tadbirkorlik faoliyati doirasida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oborotlari mustasno) hamda soliq solishning soddalashtirilgan tartibi bo‘yicha soliq to‘lovchilar qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lovchilari bo‘lib hisoblanishmaydi.

Soliq qonunchiligida nazarda tutilgan holda yagona soliq to'lovini to'lovchilar bo'lgan yuridik shaxslar soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga yilning navbatdagi choragi boshlanguniga qadar bir oydan kechiktirmasdan, yangi tashkil etilayotgan yagona soliq to'lovini to'lovchilar bo'lgan yuridik shaxslar esa faoliyat boshlanguniga qadar taqdim etiladigan yozma bildirishga asosan ixtiyoriy asosda qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashi mumkin.

Amaldagi Soliq kodeksining 198-moddasiga ko'ra qo'shilgan qiymat solig'ining ob'ekti bo'lib, tovar (ish, xizmat)larni realizatsiya qilish oboroti hamda tovarlarning importi hisoblanadi.

Tovarlarni (ish va xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti deganda – yuklab jo'natilgan tovarlar (ish va xizmatlar) qiymati tushuniladi, ya'ni yuklab jo'natilgan tovarlar (ish va xizmatlar) uchun mablag'i kelib tushishi davridan qat'iy nazar korxona qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha budjet oldida hisob-kitoblarni amalga oshirishi shart.

Soliq solinadigan import deganda esa – O'zbekiston Respublikasining bojxona xududiga olib kirilayotgan tovarlar hisoblanadi (qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etilgan import tovarlardan tashqari).

Tovarlar natural haq tarzida berilganda yoki kassa orqali o'z xodimlariga tan narx bahosidan past qilib sotilganda soliqqa tortiladigan oborot tovarlar (ish va xizmatlar)ni ishlab chiqarishning haqiqiy xarajatidan kam bo'lmagan miqdorda belgilanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) zamonaviy iqtisodiyotning ajralmas qismi bo'lib, uning zarurati bir qator iqtisodiy, ijtimoiy va davlat siyosati bilan bog'liq omillarga asoslanadi. Ushbu soliq turi davlat byudjetiga barqaror daromad keltiruvchi asosiy manbalardan biri hisoblanadi.

Shu sababli, ko'pgina mamlakatlar QQSni soliqqa tortish tizimining markaziy elementi sifatida qabul qilishadi.

QQSning asosiy zarurlari va uning iqtisodiyotga ta'siri

1. Davlat daromadlarini shakllantirishda barqarorlik: QQS mamlakat iqtisodiyotidagi barcha sohalardan daromad yig'ish imkonini beradi. Bu davlat byudjeti uchun katta miqdordagi mablag' ta'minlaydi va moliyaviy resurslarni strategik sohalarga yo'naltirish imkonini oshiradi.

Soliqning ishlab chiqarish va iste'mol jarayonining har bir bosqichida olinishi tufayli soliq yig'implari barqaror va ishonchli bo'ladi.

2. Iqtisodiy faollikni rag'batlantirish: QQS iste'molga asoslangan soliq sifatida iqtisodiyotda iste'mol va ishlab chiqarish jarayonlarida faollikni saqlab qoladi. Soliqning bu turi raqobatbardoshlikni oshirish va yangi sarmoyalarni jalb qilishga yordam beradi. QQSning mavjudligi orqali davlat xalqaro bozorda eksportchilarni qo'llab-quvvatlaydi, eksport mahsulotlari uchun nol stavkada QQS qo'llash esa mahalliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini oshiradi.

3. Shaffof soliq tizimi va soliq yukining adolatli taqsimlanishi: QQS ishlab chiqarish va savdo jarayonlarining har bir bosqichida aniq hisob-kitob qilinadi, bu esa tizimning shaffofligini ta'minlaydi. Ushbu xususiyat soliq to'lash jarayonida korrupsiya va soliqdan qochish kabi noxush holatlarning oldini olishga yordam beradi. QQSning qadam-baqadam qo'llanishi natijasida soliq yukining teng taqsimlanishi va iqtisodiyotdagi barcha ishtirokchilarga adolatli yuklanishi ta'minlanadi.

4. Ijtimoiy va iqtisodiy siyosat vositasi: QQSdan foydalanish orqali davlat ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarni amalga oshiradi. Davlat kam ta'minlangan aholiga ko'maklashish yoki strategik tarmoqlarni rivojlantirish uchun QQS bo'yicha imtiyozlar taqdim etadi. Masalan, ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan xizmatlar QQSdan ozod qilinishi yoki kamaytirilgan stavkada soliq solinishi mumkin.

5. Xalqaro savdoni qo'llab-quvvatlash va investitsiyalarni rag'batlantirish: QQSning eksportga nisbatan nol stavkada qo'llanishi eksportni rag'batlantiradi va mahalliy ishlab chiqaruvchilarni xalqaro bozorda yanada raqobatbardosh qiladi. Bu soliq usuli orqali davlat investitsion loyihalarga ko'proq sarmoya jalb qilishga erishadi va zamonaviy texnologiyalarni rivojlantirishga turtki beradi.

6. Soliq tizimining moslashuvchanligi va iqtisodiy boshqaruv imkoniyatlari: QQS davlatga iqtisodiy jarayonlarni tartibga solish va boshqarish imkoniyatini beradi. Davlat QQS stavkalarini oshirish yoki kamaytirish orqali iqtisodiy faollikni nazorat qiladi, inflatsiya yoki deflyatsiyani boshqarishda muhim rol o'ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, qo'shilgan qiymat solig'i zamonaviy iqtisodiy tizimning ajralmas qismi bo'lib, uning zarurati davlat daromadlarini shakllantirish, iqtisodiy faollikni rag'batlantirish, xalqaro savdo va investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash, hamda ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. QQSning shaffof va samarali tizimi iqtisodiyotni rivojlantirish, soliq yukini adolatli taqsimlash va korrupsiyadan holi bo'lgan soliq yig'imlarini ta'minlashga yordam beradi.

Ushbu soliq turining keng qamrovli va moslashuvchan bo'lishi davlatga iqtisodiy siyosatni moslashuvchan ravishda amalga oshirish va uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o'sishga erishish imkonini beradi.

QQS orqali davlat ijtimoiy va iqtisodiy maqsadlarini amalga oshirib, barqaror va rivojlangan iqtisodiy tizimni yaratish, raqobatbardoshlikni oshirish va xalqaro bozorda o'z o'rnini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu sababli, Qo'shilgan qiymat solig'i nafaqat davlat daromadlarini ta'minlashda, balki jamiyatning barqaror rivojlanishida ham asosiy omillardan biri hisoblanadi.

REFERENCES

1. Komilov M.M. (2020) Qo'shilgan qiymat solig'i ma'murchiligini takomillashtirish – byudjet daromadlari barqarorligini ta'minlash omilidir. Iqtisodiyotda innovatsiyalar - Innovatsii v ekonomike - Innovations in economy №5.
2. Murojaatnoma (2022) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 20 dekabr 2022 yildagi Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi.
3. Niyazmetov I.M., Safarov U.A., Radjapov X.J. (2021) Qo'shilgan qiymat solig'i mexanizmini takomillashtirish. Logistika va iqtisodiyot. 2-son.
4. Пансков В.Г. (2015) Изменение порядка зачисления средств НДС: введение НДСсчетов / В.Г.Пансков // Вестник АККОР. № 3 (35). – С. 17-18
5. Tashmuradova B.E. (2021) Qo'shilgan qiymat solig'i bazasini aniqlash va hisoblash xususiyatlari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun.